Muhammad Yusuf – qizg’aldoqqa yuragini ochgan shoir.

Andijon viloyati Izboskan 2 –son texnikumi

tarix fani o’qituvchisi **G.Hamdamova**

Annotatsiya. Mazkur ilmiy-adabiy maqolada o’zbek she’riyatining zabardast vakili, she’riyat osmonida o’zining yorqin shu’lasiga ega bo’lgan shoir Muhammad Yusuf ijodi chuqur tahlil qilinadi.

Shoir lirikasida qizg’aldoq obrazi orqali ifodalangan estetik va falsafiy qarashlar,Vatanga muhabbat,inson qalbining inja kechinmalari hamda xalqona badiiy ifoda va tafakkur masalalari atroflicha yoritiladi.Qalbi muhabbatga oshno va yuragi lolalar kabi dog’liq Muhammad ijodining bugungi adabiyot osmonidagi o’rni va yosh avlod ma’naviyatining go’zal bo’lib shakllanishidagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so’zlar: Muhammad Yusuf, qizg’aldoq, sheriyat, Vatan, lirika, tabiat obrazi,muhabbat, samimiyat, xalqona uslub, badiiy kechinmalar, ko’ksidagi armonlar,kamalak jilolari, erka kiyik, do’lana…

O’zbek adabiyoti tarixida o’zining samimiyligi, xalqona so’z boyligi,yurak tubidan buloqdek qaynab chiqqan otashin misralari bilan ,faqat Muhammadgagina xos o’rniga ega bo’lgan, qalbini soz qilib chalgan shoir –bu Muhammad Yusufdir. U qisqa,lekin bag’oyat sermahsul ijodga ega bo’lgan ,millionlarning sevgisini qozongan ijodkordir.U oddiy xalqning dardini,armonu quvonchini,orzulari,intilishlarini tundanso’z tilanib tongga ulagan, betakror so’zlar topib yurak pardalariga borib yetadigan va qalb torlarini chertadigan tarzda ifoda etdi.Ko’nglidagisi ko’zlarida aks etib turgan shoir she’rlarida “peshonasidan o’pay desa peshonasi yoq qizg’aldoqqa”alohida e’tibor beradi,inson ko’nglining, Alloh tomonidan siylangan bir inson ko’nglining kamalak ranglarini ko’rsata oldi.

Asosiy qism

Muhammad Yusuf “Qirdan bo’lak koshonasi yoq”qizg’aldoqni go’zallik ramzi sifatida, abadiylik va o’tkinchilik ,sevgi,sadoqat,vafo va nihoyat judolik ekanligini nazm orqali tasvirlab berdi.

Bahor go’zalligini bag’ri qon lolalar orqali his etgan shoir:

“Qizg’aldoqlar ichra yolg’iz yurganday,

Sizga yuragimni ochgim keladi…”

Shoir Vatanga muhabbatini ham,inson sevgisini ham qizg’aldoqni ramziy ma’no qilib xalqona sodda so’zlar orqali sheriyat muxlislariga yetkazdi.

“Sevgi bamisoli lolaqizg’aldoq

Teginmay bo’lmaydi,tegsang to’kilar.

Alvon bir gumbazning o’rtasi oppoq

Buni bir menu-bir kapalak bilar”

Muhammad Yusuf qalbi aynan lolaqizg’aldoqqa qiyoslanadi-sodda,hokisor,nozik,samimiy va hech kimdan hech narsa kutmaydigan qalb.Adirlarni yondirib yotgan qizg’aldoqlarga hayratlangancha deydi:

“Qizg’aldoqlar ichra yuragim yonar,

Kimga aytay dardim, kim meni sanar…”

Lov- lov yonib, ko’ngillarni ko’ngillarga bog’layotgan qizg’aldoq , aldamchi yellar og’ushida chirpirak bo’layotgan qizg’aldoq,qanotlarini silkib muhabbat va sadoqat ulashayotgan kapalak, bevafoning nigohlarida unsiz jon berayotgan kapalak…Muhammadning yum-yumaloq qora do’lanadek ko’zlarida hayratlarni dunyoga sig’magulik qiladi.

“Kapalakdek kelib,qoshingga qo’nib

Ko’zingga termulib umrim o’tsaydi.

Nima ham ko’ribman men yigit bo’lib

Sochingni silashga qo’lim yetmaydi…”

Shoir abadiy barhayot sevgi haqida yozar ekan yoki Vatan haqida satrlar bitar ekan uni balandparvoz so’zlar bilan emas, takrorlanmas xalqona so’zlar bilan taqdim etdi.Xalq og’zaki ijodi bilan hamohanglik uning ijodini xalqqa yaqin qildi,uning she’rlari siyohdan qog’ozga tomishi bilan qo’ldan qo’lga, og’izdan og’izga ko’chdi va kuyga solindi,birdek yoshu qarining sevimlisiga aylandi.

Shoirning xassos ijodi ta’sirida mening ham she’rlarim orasida “Qizg’aldoq” mavzusi o’rin olgan.Fursat orasida quyidagi she’rimni siz o’quvchilarning diqqatiga havola etmoqdaman.

Senga mening berar savollarim ko’p

Javobin berishga yetmas fursating.

Savollarim yurar sen-la tala-to’p

Bilaman ularsiz o’tmas hech kuning.

Yoqlamayman,- deya yolg’on gapirasan

Yurak yo’l boshlasa qaytarolmaysan.

Sevmayman, beparvo qizsan,- deysanu

Meni hayolingdan o’chirolmaysan.

Seni qizg’onaman qizg’aldoqlardan

Negaki ularni juda suyasan.

Hushyor bo’l, ularni mendan ko’p ko’rsang

O’zing yoqqan o’tda yolg’iz kuyasan.

Muhammad Yusufning betakror ijodi ko’plab shogirdlari va muxlislari uchun ijod eshiklarini ochdi,o’zining izidan ergashtirdi.Uning ijodi bugungi kunda ham o’z dolzarbligini yoqotmagan.Uning sof qalbidan taralgan ovoz hech qachon she’riyat muxlislari dan uzoqlashib ketmaydi.Uning Vatan haqidagi,insoniylik va ona tabiat jonivorlar haqida yozgan bitiklari hamisha yosh avlodni tarbiyalash uchun,kamol toptirish uchun xizmat qiladi.Uning misralarida Vatanga fidokorlik, ulug’lash, lozim bo’lsa jonni fido etish,g’urur,faxr tuyg’ulari mujassam.

Sen Xo’jandsan, Chingizlarga darvozasin ochmagan

Temur Malik orqasidan Sirdaryoga sakragan.

Muqannasan, qorachig’i olovlarga sachragan

Shiroqlarni ko’rgan cho’pon cho’lig’imsan Vatanim.

Garchi Muhammad Yusuf muxlislarini tark etib hayotdan erta ketgan bo’lsa ham o’zidan o’chmas va o’lmas meros qoldirdi.Biz yoshlar doim sevimli shoirimizni qalblarimizda saqlaymiz,uning ijodidan doim bahramand bo’lamiz, kelgusi avlodlarga yetkazamiz.

Yurak qo’ng’iroqlarini jaranglatgan,odamlarni ezgulikka chorlagan,bosgan izlaridan qizg’aldoqlar ungan Muhammad Yusuf hamisha barhayot. Uning she’rlari kirib bormagan xonadon, qo’shiqlari yangramagan tadbir topilmaydi.Har bahor uning qabrini o’zi sevgan qizg’aldoqlar qoplaydi.Muhammadning qaynoq yuragidagi olov hech qachon so’nmasligini va mangu biz bilan yashashligini yodimizga solib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhammad Yusuf.Saylanma she’rlar.-Toshkent.G’afur G’ulom nashriyoti.
2. Muhammad Yusuf .Ulug’imsan, Vatanim. Tashkent.
3. O’zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, O’qituvchi nashriyoti.
4. Zamonaviy o’zbek adabiyoti bo’yicha ilmiy maqolalar to’plami.